



ISSN: 2181-0796

DOI: 10.26739/2181-0796

www.tadqiqot.uz

**TIL, TA'LIM, TARJIMA
XALQARO JURNALI**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**

**INTERNATIONAL JOURNAL OF
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION**



Alisher Navoi



**VOLUME 5
ISSUE 5**

2024

TIL, TA'LIM, TARJIMA
5-SON, 5-JILD

ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
НОМЕР-5, ВЫПУСК-5

**LANGUAGE, EDUCATION,
TRANSLATION**
VOLUME-5, ISSUE-5



TOSHKENT-2024

TIL, TA'LIM, TARJIMA XALQARO JURNALI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13993925>

Bosh muharrir:
Mirzayev Ibodulla

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Tahrir hay'ati:

Abdullayeva Albina
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Boqiyeva Gulandom
ff.d., professor (O'zbekiston)
Bakirov Poyon
ff.d., professor (O'zbekiston)
Dadaboyev Hamidulla
ff.d., professor (O'zbekiston)
Eltazarov Jo'liboy
ff.d., professor (O'zbekiston)
Isakova Nodira
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kiselyov Dmitriy
ff.d., professor (O'zbekiston)
Labib Said Mohammad Alem
ff.d., dotsent (Afg'oniston)
Mamatov Abdi
ff.d., professor (O'zbekiston)
Mirzayev Rahmatulla
huquqshunos, dotsent (O'zbekiston)
Mirzohidova Muyassar
ff.d., professor (Qirg'iziston)
Nadim Mohammad Humoyun
PhD (Afg'oniston)
Pardayev Azamat
ff.d., professor (O'zbekiston)
Qodirova Barno
ko'lib, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Qulmamatov Do'smamat
ff.d., professor (O'zbekiston)
Rasulov Ravshanxo'ja
ff.d., professor (O'zbekiston)
Safarov Shahriyor
ff.d., professor (O'zbekiston)
Shahobiddinova Shohida
ff.d., professor (O'zbekiston)
Sobirov Anvar
PhD (O'zbekiston)
Tagayeva Sayyora
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Ubaydullayeva Maftuna
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Uluqov Nosirjon
ff.d., professor (O'zbekiston)
Umurqulov Bekpo'lat
ff.d., professor (O'zbekiston)
Xasanov Axxad
mas'ul ko'lib, PhD (O'zbekiston)
Xayrullayev Xurshidjon
ff.d., professor (O'zbekiston)
Xolova Maftuna
ff.d., dotsent (O'zbekiston)
Yo'ldoshev Qozoqboy
p.f.d., professor (O'zbekiston)

Bosh muharrir o'rinbosari:
Ismoilov Salohiddin

f.f.n., professor (O'zbekiston)

Ilmiy maslahat kengashi:

Abdiyev Murodqosim
ff.d., professor (O'zbekiston)
Baqoyeva Muhabbat
ff.d., professor (O'zbekiston)
Jabborov Xo'jamurod
ff.d., dotsent (O'zbekiston)
Karimov Suyun
ff.d., professor (O'zbekiston)
Mamatov Abdug'ofur
ff.d., professor (O'zbekiston)
Mo'minov Siddiq
ff.d., professor (O'zbekiston)
Suvonova Nigora Bonu
ff.n., dotsent (O'zbekiston)
To'xtasinov Ilhom
p.f.d. (O'zbekiston)
Yoqubov Jamoliddin
ff.d., professor (O'zbekiston)

Sahifalovchi: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;
Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;
Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13993925>

Главный редактор:
Мирзаев Ибодулла

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Редакционная коллегия:

Абдуллаева Албина
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бакиров Поён
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дадабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Элтазаров Жулибай
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Исакова Нодира
PhD, доцент (Узбекистан)
Киселёв Дмитрий
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Лабий Саид Мохаммад Алем
д.ф.н., доцент (Афганистан)
Маматов Абди
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мирзаев Рахматулла
юрист, доцент (Узбекистан)
Мирзахидова Муяссар
д.ф.н., профессор (Киргизия)
Надим Мохаммад Хумоюн
PhD (Афганистан)
Пардаев Азамат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Кадилова Барно
секретарь, PhD, доцент (Узбекистан)
Кулмаматов Дусмамат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Расулов Равшанхужа
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Сафаров Шахриёр
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шахабиддинова Шахида
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Собиров Анвар
PhD (Узбекистан)
Тагаева Сайёра
PhD, доцент (Узбекистан)
Убайдуллаева Мафтуна
PhD, доцент (Узбекистан)
Улуков Насиржан
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Умуркулов Бекпулат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Хасанов Ахмад
тв. секретарь, PhD (Узбекистан)
Хайруллаев Хуршиджон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Холова Мафтуна
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Йулдашев Казакбай
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:
Исмаилов Салахиддин

к.ф.н., профессор (Узбекистан)

Научный совет:

Абдиев Мурадқасим
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бакоева Мухаббат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Жаббаров Хужамурад
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Каримов Суюн
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Маматов Абдуғафур
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Муминов Сиддик
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Сувонова Нигорабону
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Тухтасинов Илхам
д.п.н., профессор (Узбекистан)
Якубов Жамалиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Вёрстка: Шахрам Файзиев

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;
Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;
Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.13993925>

Chief Editor:
Mirzaev Ibodulla

Doc. of phil. sciences, professor (Uzbekistan)

Editorial Collegue:

Abdullaeva Albina
cand. of phil. sciences, assoc. prof. (O'zbekiston))
Bakieva Gulandom
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Bakirov Poyon
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Dadaboev Khamidulla
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Eltazarov Juliboy
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Isakova Nodira
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Kiselyov Dmitriy
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Labib Said Mohammad Alem
doc. of phil. scien. (Afg'oniston)
Mamatov Abdi
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Mirzaev Rahmatulla
lawyer, assoc. prof. (Uzbekistan)
Mirzokhidova Muyassar
doc. of phil. scien., prof. (Kirghizistan)
Nadim Mohammad Humoyun
PhD (Afg'oniston)
Pardaev Azamat
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Kadirova Barno
secretary, PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Kulmamatov Dismamat
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Rasulov Ravshankhuja
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Safarov Shakhriyor
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Shakhobiddinova Shokhida
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Sobirov Anvar PhD
(Uzbekistan)
Tagaeva Sayyora
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Ubaydullayeva Maftuna
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Ulukov Nosirjon
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Umurkulov Bekpulat
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Hasanov Ahmad
senior secretary, PhD (Uzbekistan)
Hayrullaev Hurshidjon
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Xolova Maftuna
doc. of phil. scien., assoc. prof. (Uzbekistan)
Yuldashev Kazakbay
doc. of ped. scien., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:
Ismailov Salohiddin

Cand. of phil. sciences, professor (Uzbekistan)

Scientific Advisory Council:

Abdiev Murodkosim
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Bakaeva Mukhabbat
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Berdaliev Abduvali
doc. of phil. scien., prof. (Tajikistan)
Jabborov Khojamurod
doc. of phil. scien., assoc. prof. (Uzbekistan)
Karimov Suyun
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Mamatov Abdugafur
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Muminov Siddik
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Suvonova Nigorabonu
cand. of phil. sciences, assoc. prof. (Uzbekistan)
Tukhtasinov Ilhom
doc. of ped. scien. (Uzbekistan)
Yakubov Jamoliddin
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Pagemaker: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENT

MUNDARIJA

TILSHUNOSLIK

1.ANORQULOVA OZODA

Maqollarda “Oila” konseptining ifodalanishi.....7

2.OMIDULLAH BAYANI

Naoiyning “Muhokamat ul – lug‘atayn”idagi 100 ta fe‘lning semantik xususiyatlarini o‘rganish.....14

3.HOLMURADOVA LEYLA, MAHMUDOVA MAFTUNA

Olamning milliy manzarasini ijodiy va tasviriy aks ettirishda majoziy til.....30

4.MATKARIMOVA BARNO

Shakl va mazmun birliklari paradigma sifatida.....49

5.ALIYEVA GULZODA

Jahon tilshunosligida paremiologik birliklar tadqiqining lingvomadaniy aspekti.....55

6.SUNNATOVA GULJAHON

Toponimika semantikasining muammoli masalalari.....70

TA'LIMSHUNOSLIK

7.BOLTAYEVA BARNO, BO‘RIYEVA SHOHZODA

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari.....77

8.AMONOVA DILAFRO‘Z

Saida Zunnunova asarlarining asosiy yo‘nalishlari.....83

9.ELMURATOVA UMIDA

Koreys badiiy asarlarida shaxs obrazini lingvopoetik va sotsial ifodalanishi.....94

10.MO‘MINOVA MUXAYYO

Umumiy o‘rta ta’limda liberal boshqaruv tizimi.....103

11.KARJAVUV G‘OLIB

O‘zbek va jahon adabiyotida masal janrining o‘qitilishiga doir qarashlar tahlili.....112

12.UMIROV OTABEK

Enhancing tesol with artificial intelligence: opportunities, challenges, and future directions.....119

13.SOTVOLDIYEV MURTAZ

Sehrli-fantastik hamda hayvonlar haqidagi ertaklarga xos xususiyatlardagi yaqinliklar.....128

14.YAXYAYEVA NIGINA

Mifologik makonni yaratishda Chingiz Aytmatov mahorati.....135

TARJIMASHUNOSLIK

15.FAYZULLAYEV XURSHID

Fransuz tilidagi tavsiyanomalar matnida kommunikativ vaziyatning voqelanishi.....143

16.ABDUSATTAROVA SHAXLO

Ingliz tilida “content” leksik birligining leksik-semantik tavsifi.....156

TAQRIZ

17.IBODULLA MIRZAYEV

J.P.Vine va J.Darbelnelarning “Fransuz va ingliz tillarining qiyosiy stilistikasi. Tarjima metodi” nomli fundamental asariga.....163

TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Yaxyayeva Nigina,
tayanch doktorant
Buxoro davlat universiteti
Buxora, O'zbekiston
n.i.yaxyayeva@buxdu.uz

MIFOLOGIK MAKONNI YARATISHDA CHINGIZ AYTMATOV MAHORATI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15249964>

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotimizdan ko'zlangan asosiy maqsad – taniqli qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov ijodidagi mifologik elementlarning uning adabiy asarlarida mohirona ishlatishini tahlil qilishdir. Tadqiqotimiz davomida uning asarlarida insoniyatning umumiy qadriyatlarini, madaniy merosini va milliy an'analarini o'zaro uyg'unlashtirgan holda mifologiyaga boy syujetlar yaratishga erishganini ham ta'kidlab o'tdik. Aytmatovning asarlarida mifologik obrazlar, ramzlar va motivlar inson tabiatini va hayotning falsafiy mazmunini chuqur yoritishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotimiz doirasida Aytmatovning mifologiyani qo'llash uslubidagi o'ziga xos modernistik yondashuvni ko'rsatishga urindik. Tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan biri Chingiz Aytmatovning qissalaridagi mifologik elementlarni chuqur tahlil qilish hisoblanadi. Qolaversa, maqolada jahon adabiyotining boshqa durdonalariga ham qisman to'xtalib o'tilgan.

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra shunga amin bo'ldikki, Chingiz Aytmatovning asarlarida mifologik makon voqealar rivoji uchun oddiy joy emas, balki ramziy va falsafiy ahamiyatga ega bo'lgan maydon sifatida namoyon bo'ladi. Chingiz Aytmatovning mifologiyani ijodiy ishlatishdagi mahorati uning asarlariga ma'naviy chuqurlik, ramziy ma'no va falsafiy mazmun bag'ishlagan. U xalqning o'zligini, tarixiy xotirasini saqlab qolgan holda, insoniyatning umumiy qadriyatlarini tasvirlashga erishgan. Shu tariqa, Aytmatovning mifologik qarashlari uning ijodini nafaqat qirg'iz adabiyotining, balki jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylantirgan.

Kalit so'zlar: mifologiya, mifologik makon, mifologik obraz, ramziy ma'no, dualistik xarakter.

Nigina Yakhyaeva,
PhD student
Bukhara state university
Bukhara, Uzbekistan
n.i.yaxyayeva@buxdu.uz

CHINGIZ AITMATOV'S MASTERY IN CREATING MYTHOLOGICAL SPACE

ABSTRACT

The main objective of this study is to analyze the skilful use of mythological elements in the works of the famous Kyrgyz writer Chingiz Aitmatov in his literary works. During the study, we also noted that in his works he managed to create mythologically rich plots that combine universal human values, cultural heritage and national traditions. In Aitmatov's works, mythological images, symbols and motifs play an important role in deeply revealing the essence of man and the philosophical content of life. In our study, we tried to demonstrate Aitmatov's unique modern approach to the use of mythology. One of the main objectives of our research is a deep analysis of mythological elements in the works of Chingiz Aitmatov. In addition, the article briefly touches on other masterpieces of world literature. Based on the results of the study, we are convinced that in the works of Chingiz Aitmatov, the mythological space is not just a place for the development of events, but a space of symbolic and philosophical meaning. Chingiz Aitmatov's mastery of the creative use of mythology gave his works spiritual depth, symbolic meaning and philosophical content. He managed to reflect the common values of humanity while preserving the identity and historical memory of the people. Thus, Aitmatov's mythological views made his work one of the masterpieces of not only Kyrgyz but also world literature.

Keywords: mythology, mythological space, mythological image, symbolic meaning, dualistic character.

Нигина Яхяева
базовый докторант (phd)
Бухарского государственного университета
Бухара, Узбекистан
n.i.yaxyayeva@buxdu.uz

МАСТЕРСТВО ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА В СОЗДАНИИ МИФОЛОГИЧЕСКОГО ПРОСТРАНСТВА

АННОТАЦИЯ

Основной целью данного исследования является анализ искусного использования мифологических элементов в творчестве известного кыргызского писателя Чингиза Айтматова в его литературных

произведениях. В ходе исследования мы также отметили, что в своих произведениях он сумел создать мифологически насыщенные сюжеты, сочетающие в себе общечеловеческие ценности, культурное наследие и национальные традиции. В творчестве Айтматова мифологические образы, символы и мотивы играют важную роль в глубоком раскрытии сущности человека и философского содержания жизни. В рамках нашего исследования мы попытались продемонстрировать уникальный современный подход Айтматова к использованию мифологии. Одной из основных задач нашего исследования является глубокий анализ мифологических элементов в произведениях Чингиза Айтматова. Кроме того, в статье кратко затрагиваются и другие шедевры мировой литературы.

По результатам проведенного исследования мы убеждаемся, что в творчестве Чингиза Айтматова мифологическое пространство является не просто местом развития событий, а пространством символического и философского значения. Мастерство Чингиза Айтматова в творческом использовании мифологии придавало его произведениям духовную глубину, символический смысл и философское содержание. Ему удалось отобразить общие ценности человечества, сохранив при этом самобытность и историческую память народа. Таким образом, мифологические воззрения Айтматова сделали его произведение одним из шедевров не только кыргызской, но и мировой литературы.

Ключевые слова: мифология, мифологическое пространство, мифологический образ, символическое значение, дуалистический характер.

KIRISH

Jahon adabiyotida mifologik makon – bu asarlarda real hayot va ilohiy, ramziy dunyoning birlashgan holda tasvirlanishi bo‘lib, u insoniyatning qadimiy dunyoqarashi, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini aks ettiradi. Mifologik makon har bir millatning mifologiyasidan ilhomlanib, adabiyotda turli shakllarda namoyon bo‘lgan. Jahon adabiyotida mifologik makonning umumiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Dualistik xarakter

Mifologik makon ko‘pincha ikki dunyo – real va ilohiy, yoki dunyoviy va sirli o‘rtasidagi chegarada joylashadi. Misol uchun: Yunon mifologiyasida Olimp tog‘i xudolar yashaydigan sirli makon bo‘lib, real dunyo va ilohiy olamni bog‘laydi. Dante Aligyerining “Ilohiy komediya” asarida jannat, do‘zax va a’rof makonlari inson ruhining turli holatlarini aks ettiruvchi mifologik fazolar sifatida talqin etiladi.

2. Cheksizlik va vaqtning mutlaq emasligi.

Mifologik makonlarda vaqt va fazo chegaralari o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan, Gomerining "Odisseya"sida Odisseyning sarguzashtlari real fazoda sodir bo'layotgandek ko'rinsa-da, ular mifologik tushunchalar, sirli orollar va xayoliy mavjudotlar orqali ramziy ma'no kasb etadi.

3. Ramziy ahamiyatga ega bo'lgan joylar.

Mifologik makon odatda qahramonning ichki kechinmalarini, o'zgarishlarini yoki axloqiy qarorlarini aks ettiradi. Misol uchun: Jon Miltonning "Yo'qotilgan jannat" asarida jannat va jahannam makonlari ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashning ramzi sifatida tasvirlanadi. Herman Melvilning "Mobi Dik" romanida okean mifologik makon bo'lib, insonning tabiat bilan bo'lgan qarama-qarshiligini ifodalaydi.

4. Tabiat va ilohiylik uyg'unligi

Jahon adabiyotida mifologik makon ko'pincha tabiat bilan bog'langan. Masalan, ingliz adibi Uilyam Bleykning she'riyatida tabiat sirli va ilohiy makon sifatida namoyon bo'ladi. Bleykning tabiat haqidagi qarashlari nafaqat uning she'riyatida, balki rasmlarida ham namoyon bo'ladi. U tabiatni faqat tashqi muhit sifatida emas, balki inson va ilohiy haqiqat o'rtasidagi vositachi sifatida tasvirlaydi. Bleyk tabiatni Yaratuvchining san'ati sifatida ko'radi. Uning nazarida, har bir gul, daraxt yoki hayvon ilohiy hikmat va sirlarni aks ettiradi. Masalan, uning mashhur "Innocence and Experience" (1779) to'plamidagi she'rlarida tabiatning go'zalligi va samimiyligi orqali insonning begunohligi va sof qalbi aks ettirilgan. Ayniqsa, "The Tyger" va "The Lamb" she'rlarida tabiatdagi ikki qarama-qarshi kuch – qudrat va soddalik – orqali Yaratuvchining murakkab mohiyati ifodalanadi. Bleyk tabiatni inson ruhining aksini ko'rsatuvchi ko'zgu deb bilgan. U tabiatni cheksiz va sirli makon sifatida tasvirlash orqali, insonning o'zini anglash va ilohiylikka yaqinlashish yo'lini izohlaydi. She'riy obrazlar orqali u tabiatning go'zalligi inson qalbidagi ilohiy nurni uyg'otishini ta'kidlaydi.

Paulo Koelo "Alkimyogar" asarida sahro mifologik makon sifatida tasvirlanib, insonning ichki qidiruvlarini ramziy anglatadi. Asarda sahro nafaqat asar voqealari rivojlanadigan joy, balki chuqur ramziy ma'no kasb etuvchi mifologik makondir. U insonning ichki qidiruvlari, o'z-o'zini anglash yo'lidagi to'siqlar va maqsadga erishish jarayonidagi transformatsiyani ifodalaydi. Masalan: asarda sahroni sinov va o'zgarish makoni sifatida ko'rish mumkin. Sahro insonning hayotiy sinovlardan o'tishi, o'z ichki dunyosini kashf qilishi va o'zini o'zgartirishi jarayonini tasvirlaydi. Asardagi bosh qahramon Santyago uchun sahro nafaqat geografik makon, balki ruhiy yo'lning ramzi hisoblanadi.

Sahro bo'ylab safar qilar ekan, u o'zining eng chuqur ichki savollariga javob izlaydi va ma'naviy o'sishga erishadi. Sahro bo'ylab yurish paytida Santyago sabr-toqatni, mashaqqatlarga bardosh berishni va o'z istaklariga sodiq qolishni o'rganadi. Sahrodagi tinimsiz qumlar va olovli quyosh hayotning qiyinchiliklarini ifodalaydi, lekin aynan shu sharoitda u ilohiy belgilarga va ichki ovoza quloq solishni o'rganadi. Sahro asarda ramziy va mifologik manbalarga boy makon sifatida namoyon bo'ladi. Sahrodagi qum, shamol, quyosh va osmon unsurlari orqali Koelo inson va tabiat o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ko'rsatadi. Ayniqsa, "Shamolga aylanish" epizodi tabiat bilan uyg'unlik va o'zlikni anglashning kulminatsiyasi sifatida tasvirlanadi. Bu qismda sahro insonga ilohiylik va o'z ichki qudratini kashf qilish imkonini beradi.

Quyida siz bilan mifologik makonning funksiyalarini ko'rib chiqamiz:

- Qahramonning ruhiy holatini aks ettirish: Mifologik makon qahramonning ichki kurashlari va o'zgarishlarini ramziy shaklda ko'rsatadi.
- Falsafiy masalalarni yoritish: Bu makonlar orqali yozuvchilar insoniyatning axloqiy, ruhiy va ekzistensial savollariga javob izlaydi.
- An'analarni saqlash: Mifologik makonlar xalq madaniyati va mifologiyasini adabiyot orqali avlodlarga yetkazadi.
- Universallikni ta'minlash: Bunday makonlar milliy madaniyat va qadriyatlarni umumjahon darajasiga olib chiqadi.

Adabiyot maydoniga XX asrning 50-yillarida kirib kelgan va millionlab kitobxonlar qalbiga tez yo'l topa olgan, g'oyat go'zal va sermazmun asarlari bilan ularni ohanrabodek o'ziga tortib, sehraib olgan, hatto Lui Aragon, Nikolay Tixonov, Eduardas Mejelaytis, Muxtor Avezov, Rasul Hamzatov kabi jahonga mashhur so'z sehrugarlarini lol qoldirgan va ularning tahsiniga sazovor bo'lgan buyuk iste'dod sohiblaridan biri Chingiz Aytmatov tinimsiz mehnat, izchil ijodiy izlanishlar samarasi o'laroq, nafaqat turkiy xalqlar, balki butun jahon xalqlari kitobxonlarining ham ardoqli yozuvchisiga aylandi. U o'zining ko'p qirrali takrorlanmas ijtimoiy faoliyati bilan, insoniyatni to'liqlantirayotgan dolzarb ma'naviy muammolar talqiniga bag'ishlangan yuksak asarlari bilan jahon adabiyoti xazinasiga, adabiy-badiiy tafakkur rivojiga ulkan hissa qo'shgan adibdir [Yaxyayeva, 2022; 5].

Chingiz Aytmatov har bir yangi asarida hayotimizga yangi bir mavzu, yangi g'oyalar, yangi obrazlar olamini olib kirishi bilan birga yangi tasviriy-uslubiy yo'llarni qo'llash orqali asrimizning dolzarb ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ma'naviy muammolarini dadil ko'tarib chiqadi. Adibning "Oq kema" (1970), "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissalari ham shunday asarlardan bo'lib, o'zining yuksak realistik tasviri bilan kishini g'oyatda hayajonlantiradi. Mazkur asarlarda ramziy-falsafiy mazmunning tobora chuqurlashib borganini ko'rish mumkin. "Oq kema" qissasi juda katta emotsional kuchga ega bo'lib, Chingiz Aytmatov ijodida muhim ma'naviy-axloqiy bir bosqichdir. Asarda turfa fe'lli

odamlar-ijobiy va salbiy obrazli kishilar tasvirlangan. Asarning bosh qahramoni orzular og'ushidagi go'dak. Kichkina bola orqali oila muammolari, norasida bolaning o'y – xayollari, otasiga bo'lgan sog'inchi ifodalangan. Bolakay baliqqa aylanib, bobosi aytgan oq kemaga suzib borib, ota-onasining diydoriga to'yib yashashni orzu qiladi. Ana shu go'daklarga xos xayollari uni ozorlaydi [Aytmatov, 2012; I.G'.tarj]. "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissasi esa adibning boshqa asarlariga qaraganda ancha og'ir o'qiladi. Chunki uning bosh qahramoni Kirisk birin-ketin yaqinlaridan ajraladi. Avvaliga bobosi, keyin amakisi, so'ngra esa otasi aynan tabiiy ofat yo kasallik, falokat yoki dushman bilan olishuv natijasida emas, chorasizlikdan, bundan ortiq so'ngsiz azob-uqubatga muhtalo bo'lmaslik, yanayam boshqacha aytganda, o'n gulidan bir guli ochilmagan, hali hayot atalmish buyuk ne'matni yaxshi anglamagan Kirisk uchun 'zlarini qurbon qiladi [Aytmatov, 1984; I.G'.tarj].

Chingiz Aytmatovning ijodi mifologik elementlarni adabiy asarlarida mohirona ishlatishi bilan ajralib turadi. U o'z asarlarida insoniyatning umumiy qadriyatlarini, madaniy merosini va milliy an'alarini o'zaro uyg'unlashtirgan holda mifologiyaga boy syujetlar yaratishga erishgan. Aytmatovning asarlarida mifologik obrazlar, ramzlar va motivlar inson tabiatini va hayotning falsafiy mazmunini chuqur yoritishda muhim rol o'ynaydi. Mif, rivoyat va afsonalar asar matni tarkibida hozirgi voqelik bilan teng maqomda turadi. Bu – Aytmatov tanlagan badiiy usul. U tabiatan shunday edi, o'tmishdan saqlanib qolgan sehr va falsafaga kitobxonlarni jalb etishga tashna edi. Zero, miflar – ajdodlarimizning bizga yo'llagan nomalaridir. Ta'bir joiz bo'lsa, shuni aytish lozimki, Ch.Aytmatov asarlarida musiqa, mif va afsona uyg'unligi mavjud. Chingiz Aytmatovning asarlaridagi badiiy ohangdoshlik siri, sehri shunda.

Aytmatovning ijodi qirg'iz xalqining boy folklori va mifologik qarashlariga tayanadi. Uning asarlaridagi mifologik obrazlar ko'pincha xalq og'zaki ijodi va eposlaridan olingan. Masalan, "Oq kema" qissasida Qirg'iz xalqining "Maral ona" mifologik qahramoni orqali inson va tabiat o'rtasidagi muqaddas bog'liqlik aks ettirilgan. Aytmatov mifologiyani nafaqat milliy darajada, balki global ramziy tushunchalar darajasida ham qo'llaydi. "Asrga tatigulik kun" romanidagi "Manqurt" obrazi o'z ildizlarini unutgan, ruhiy erkinligini yo'qotgan zamonaviy insonning umumiy metaforasidir. Bu mifologik tushuncha orqali Aytmatov tarixiy xotira, milliy o'zlik va inson qadr-qimmati haqida chuqur falsafiy fikr yuritadi. Chingiz Aytmatov mifologik motivlarni nafaqat ramziy mazmunni oshirish, balki syujetni yanada jozibador va ta'sirli qilish uchun ham ishlatgan. Masalan, "Jamila", "Oq kema", va "Asrga tatigulik kun" kabi asarlarida mifologiya hayotiy voqealar bilan uyg'unlashgan holda, voqealarning drammatizmini oshiradi.

Mifologiya va modernizm

Aytmatovning mifologiyani qo'llash uslubi o'ziga xos modernistik yondashuvni ko'rsatadi. U qadimiy mifologik tushunchalarni zamonaviy masalalar bilan bog'laydi, bu esa o'quvchini faqat milliy urf-odatlar emas, balki global muammolar haqida ham o'ylashga undaydi. Yozuvchining mifologik makonlari ko'pincha tabiat va insonning bir butunligi tushunchasiga asoslanadi. Masalan, "Oq kema" qissasidagi Tog'lar va Issiqko'l nafaqat geografik joylar, balki ramziy makon sifatida qahramonning ichki dunyosini aks ettiradi. Bu makonlar inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni, uning sirli va ilohiy jihatlarini ifodalaydi. Qolaversa, tog'lar va ko'l chegarasi qahramon uchun hayot va orzu o'rtasidagi ko'pri bo'lib xizmat qiladi. Bu chegaraviy makonlar qahramonning ichki kechinmalari va hayotiy tanlovlarini chuqurroq ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, Chingiz Aytmatovning asarlarida mifologik makon voqealar rivoji uchun oddiy joy emas, balki ramziy va falsafiy ahamiyatga ega bo'lgan maydon sifatida namoyon bo'ladi. U orqali yozuvchi inson va tabiat, haqiqat va hayol, o'tkinchilik va abadiylik o'rtasidagi chegaralarni o'rganadi va o'quvchini chuqur mulohaza yuritishga undaydi. Shu tariqa, mifologik makon Aytmatov asarlarining ma'naviy chuqurligini ta'minlaydi. Chingiz Aytmatovning mifologiyani ijodiy ishlatishdagi mahorati uning asarlariga ma'naviy chuqurlik, ramziy ma'no va falsafiy mazmun bag'ishlagan. U xalqning o'zligini, tarixiy xotirasini saqlab qolgan holda, insoniyatning umumiy qadriyatlarini tasvirlashga erishgan. Shu tariqa, Aytmatovning mifologik qarashlari uning ijodini nafaqat qirg'iz adabiyotining, balki jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylantirdi.

Iqtiboslar/ Сноски/ References:

1. To'rayeva B.B. Zamonaviy romanlarda xronotop poetikasi monografiyasi. – Toshkent, 2022. – 36-bet
2. Yaxyayeva, N. Charlz Dikkensning “Buyuk umidlar” va Chingiz Aytmatovning “Asrni qaritgan kun” asarlarida portret va peyzaj tasvirining mushtarak elementlari.- Ta'lim fidoyilari, 2022.
3. Yaxyayeva, N. (2023). Chingiz Aytmatov asarlarida badiiy makon konsepsiyasi. *Interpretation and Researches*, 1(7).
4. Chingiz Aytmatov. Yozuvchi va zamon. Qarang: Adabiyot va zamon. — Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981-yil, 334- bet.
5. Есин А.Б. Время и пространство // Введение в литературоведение: Учеб.пособие / Л.В.Чернец, В.Е.Хализев, А.Я.Эспалнек и др.; Под ред. Л.В.Чернец. – М.: Высшая школа, 2004. – 680 с. (Yesin A.B. Vremya I prostranstvo// Vvedeniye v literaturovedeniye: Ucheb.posobiye/ L.V. Chernes, V.E.Xalizev, A.Ya. Espalnik i dr.; Pod red. L.V.Chernes.- М.:Visshaya shkola, 2004. – 680 s).
6. Философия: Энциклопедический словарь. – М: Гардарики. Под редакцией А.А. Ивина. 2004. /https://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_philosophy (Filosofiya: Ensiklopedicheskiy slovar. – М: Gardariki. Pod redaksiey A.A.Ivina.2004).
7. Хемингуэй в воспоминаниях современников/ Сост., вступ. ст., коммент. Б. Грибанова. — Москва: Терра, 1994. – 542 с. (Хemenguey v vospominaniyax sovrennikov/ Sost., vstup.st., komment. B.Gribanova. -Moskva: Terra, 1994. 542 s).
8. Хемингуэй Э. Избранное. – Москва: Просвещение, 1984. – 304 с. (Хeminguey E. Izbrannoye. – Moskva: Prosvesheniye, 1984. – 304 s).
9. Хемингуэй Э. Избранные произведения в 2 т. Т.2. – Москва, 1959.– 652 с. (Хemenguey E. Izbranniye proizvedeniya v 2 t. T.2. – Moskva, 1959. – 652 s)
10. Хемингуэй Э. О жизни и искусстве. Мысли и афоризмы. – Дон, 1964. – №7. – 185 с. (Хemenguey E. O jizn i iskusstve. Misli i aforizmi. – Don, 1964.- №7. – 185 s).
11. Xalova, M. (2023). Phenomenon of female creativity in classical literature. *Международный журнал языка, образования, перевода*, 4(6).